



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “18” aprel

BUYRUQ № 45

Toshkent sh.

**“Bilvosita o‘lchanadigan moliyaviy vositachilik xizmatlari
ishlab chiqarishini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom”ni tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, bilvosita o‘lchanadigan moliyaviy vositachilik xizmatlari ishlab chiqarishini hisoblash bo‘yicha xalqaro statistika amaliyotidan kelib chiqib, statistika uslubiyatini takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Bilvosita o‘lchanadigan moliyaviy vositachilik xizmatlari ishlab chiqarishini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat statistika qo‘mitasining 2019- yil 31- oktabrdagi “Bilvosita o‘lchanadigan moliyaviy vositachilik xizmatlari ishlab chiqarishini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi 42- son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov